



O'ZBEK TILIDA SHAXS MA'NAVİYATINI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALAR TURLARI VA TASNIFI

Ibodova Malika

Qarshi davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7353467>

ARTICLE INFO

Received: 14th November 2022

Accepted: 20th November 2022

Online: 24th November 2022

KEY WORDS

Maqol, lingvo-ma'naviyat, shaxs, lingvo-madaniyat, matal, naql, barqaror birikma

ABSTRACT

Maqolada o'zbek tilidagi shaxs ma'naviyatini ifodalovchi birliklar berilgan va ular tasnif qilingan. Maqollar va matallar hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida, til me'yorlarining o'sishida qanday rol bajarayotganligi asosiy muammo sifatida olindi. Maqolada maqollar va matallarning shaxs ma'naviy olamidagi o'rni misollar orqali asosli yoritildi.

Tilshunoslikda so'zlarning ma'nosi insonga ta'sir qilishi bilan birgalikda uning ma'naviyatini ham o'rganadi. Bu so'zning maydon nazariyasi bilan bog'liq. Bu nazariya so'z ma'nosining tadqiqi bilan bog'liqdir. Olamdagi narsa, voqea-hodisa, harakat hammasi inson ongida tushuncha sifatida aks etadi. Tushuncha esa ma'no yaxlitligidan iborat tovush tizimida so'z shaklida namoyon bo'ladi. Til - borliqni ifodalaydi. Shunday ekan, til bilan borliq uzviy aloqadadir. Til va borliq aloqasiga bo'lgan munosabatiga yondashuv bo'yicha bir qancha yo'nalishlar vujudga keldi. Ularning bir guruhi til va borliq aloqasiga bo'lgan munosabatga yondashuv masalasida ular uzviy aloqador, til bevosita obyektiv olamni ifodalaydi, degan tezisni bayon qilsa, boshqa faylasuflar, tilning borliq bilan bo'lgan munosabatini rad etadilar. munosabatini e'tirof etuvchilarning o'zi ham til borliqni bevosita ifodalaydimi yoki bilvosita ifoda etadimi, degan masalaga turlicha javob beradilar. Bir guruh faylasuflar obyektiv olamni

olamni ifodalashda subektning rolini tan oladilar, obyektiv ong orqali tilda o'z ifodasini topishini bayon qiladilar. Boshqa yo'nalishdagi faylasuflar esa, til obyektiv olamni bevosita ifodalashini e'tirof etadilar. Ular jodugar, suv parisi, dev singari afsonaviy tushunchalar borliqda yo'qligini, ammo uning tilda ifodalanishini, borliq elementlari bilan til birliklari o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligini asos qiladilar. Bugungi kunda falsafiy adabiyotlarda til va borliq munosabatiga bag'ishlangan asarlarda borliqni tilda ong orqali o'z ifodasini topishi e'tirof etiladi. Shuning uchun ham nomlash jarayoni borliq elementlarining ongda aks etishi va bu aks etgan, umumlashgan obrazni tilda o'z ifodasini topishi bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shunday ekan, insonni ma'naviyatini anglash uning so'z boyligi bilan ham bog'liq. Shaxs ma'naviyatini ifodalovchi leksik vositalarni tasnif qiladigan bo'lsak, ular quyidagilar:

- Maqollar
- Matallar



- Frazzeolog birliklar
- Maqtovni bildiruvchi so'zlar (ofarin, barakalla)

Bu qatorni yana ko'paytirish mumkin. Ularni ba'zilarini tahlil qilamiz. Frazzeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks yetadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy meyorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi. F.I.

Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir. V.A. Maslova frazeologizmlar tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi: Frazzeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjud. Frazzeologik birliklarning ichki shaklida obektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo'yoq beradi. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotasiyani ochish juda muhimdir. Ma'lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarning o'рни beqiyosdir. O'zbek milliy frazeologizmlarining boyishi va rivojlanishiga yeng katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri A.Qahhordir.

Yozuvchining xalq iboralaridan foydalanish mahorati, uning frazeologik novatorligi qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Chunki, A.Qahhor qo'llagan frazeologizmlarning aksariyatida madaniy-milliy konnotasiya kuchli, ularda milliy madaniyatning ruhi, "izi" mavjud. "Xalqning so'z donoligini mukammal yegallagan yozuvchi o'z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulodda muvofiq tarzda foydalanadi. O'zi ham yangi iboralar yaratadi, ammo bu yangi iboralar xalqning o'zida mavjud bo'lgan iboralarning modeliga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o'qiganda, xalqning o'zidagi tegishli ibora ham esga tushadi. Iboralarni nutqida ishlatgan insonni tajribali ekanligi bilinadi yoki uning lisoniy qobiliyati yuqori bo'ladi. Masalan, boshlarini bir joyga qovushtirmoq iborasi Yoshi kata insonlar tomonidan ishlatiladi.

Maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda xalqning hayotiy muammolari-mehnatmashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlarima'naviyati hamda madaniyati-hamma-hammasi ko'zgudagidek aks etib turadi. Bu ko'hna xalq ijodi qachon va qanday vaziyatda, kim tomonidan yaratilganligini aniq aytish qiyin. Har holda, bu sodda va murakkab, turg'un va barqaror iboralarni maqol va matallarni ixcham, lo'nda va chuqur mazmunli naqlarning yaratilishida oddiy ijodkor xalq bilan birga uning madaniyati, ma'naviyatidan, urf-odatidan kelib chiqib olim-ulamolarning hissalarini ham katta bo'lgani shubhasiz. Xalqning til boyligining bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. Shundan kelib chiqib nutqda fikr



ifodalash uchun barqaror birikmalarga ehtiyoj mavjud. O'zbek tilida barqaror birikma sifatida, odatda, maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda e'tirof etiladi. Barqaror birikma qo'shma leksema va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: 1) Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib, ko'chma ma'no ifodalaydi; 2) Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi; 3) Barqaror birikmaning tarkibiy qismlari qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi. Demak, alohida shakllangan tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan yaxlitlangan so'zlar bog'lanmasi barqaror birikma sanaladi. Barqaror birikmani buzib-tarkibini o'zgartirib bo'lmaydi. Shuni inobatga olgan holda barqaror birikmaning tarkibiy qismi sifatida maqol va matallar ham bir-biridan farqlanadi. Maqol-grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikmadir. Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Faqat shu jihatdan ular lisoniy imkoniyat sifatida baholanib, lisoniy birliklarga xos xususiyatlarga ega deyiladi. Xalq maqollari mustaqil folklor janri sifatida qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan, mataldan keskin farqlab turadi. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr esa qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikriy lo'ndalik esa fikrni ixcham ifodalashga imkon beradigan ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham maqolda biror ortiqcha so'z, tasviriylik va tavsifiylik

uchramaydi, chunki maqoldagi ixcham fikrning o'zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Bu mohiyatning yuzaga chiqishi hamma vaqt ixcham badiiy shakl sifatida amalga oshadi. Masalan, "Bir yigit qirq yilda bino bo'ladi". Ushbu maqolda tugal fikr mavjud, ya'ni yigit bu yerda chin inson, har taraflama yetuk odam ma'nosida ishlatilgan. Kishi dunyoda qirq yil yashaganidan keyingina har jihatdan kamol topadi, hayotning past-balandiga tushunadi, uylanib, bola-chaqali bo'lib, haqiqiy hayot yo'lini topib oladi, deyilmoqda. ("Hikmatnoma". 41-bet)

Yolchidan yoliqsang, qarzdor qil. Yolchi-yolvoruvchi, hadeb u-bu narsa so'rab keluvchi shilqim odam. "Shunday odamdan yoliqsang (bezor bo'lsang), unga bir nima berib, qarzdor qilib qo'y, qarzini so'raydi deb, kelmay ketadi, o'zini sendan olib qochib yuradi", deyilmoqda. A. Qahhorning

"Bemor" hikoyasi uchun epigraf qilib olingan "Osmon yiroq yer qattiq" maqoli "Hikmatnoma" da "...og'ir ahvolga, noiloj ahvolga tushib qolgan kishilar tomonidan aytiladi" deya izoh berilgan. Matallar grammatik jihatdan gap holda shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llanadigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar hisoblanadi. Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilingan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir. Matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ifoda etiladigan nutqiy tarkibdir. Maqol so'zlovchining o'z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Maqol bilan matal o'rtasida umumiylik ko'zga tashlanadi. Bu umumiylik shundan iboratki, har ikkala tushuncha ham nutqni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor



nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilishga qaratilgan. Lekin shu bilan birga tugal fikrni o'zida ifodalagan maqollardan matallar jiddiy farq qiladi. Matal aytmoqchi bo'lgan fikr muddaoni boshqa vositalarni qo'ygan holda ifodalaydigan nutqiy tarkib bo'lib unda xulosa bo'lmaydi, balki uning o'zi biron xulosa keltirib chiqish uchun xizmat qiladi. Aytish joizki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matallar o'rtasida bir farq borligini tasdiqlamoqda. Jumladan, O. Madayev o'zining ilmiy yondashuvi asosida shunday fikr bildiradi: "Xalq maqollari shakl va mazmun jihatdan matallarga yaqin janr hisoblanadi. Matallar ham ixcham matnga ega ekanligi bilan maqolga o'xshaydi. Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda "Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar" degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamiz va Falonchi yaxshi gapirdi ma'nosini bildiramiz. Chunki "ilon inidan chiqadigan" so'z birikmasi alohida aytilsa, mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki, shaxs nutqini go'zallashtirish uchun xizmat qiladi. Maqol esa mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi. Ilmiy jihatdan yondashib B. Mengliyev ham matallar haqida quyidagicha fikr bildirgan: "Matal ham mavjudlik jihatdan barqaror birikma holida bo'ladi. Matal deganda to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi. Masalan, qizil qor yog'anda, tuyaning dumi yerga yetganda,

dumi, xurjunda, ali desa vali deydi, berdisini aytguncha kabi. Matalga boshqa gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi. Masalan, Berdisini aytguncha jim tur. Tuyaning dumi yerga yetganda qarzini to'laydi kabi. Yuqoridagi ilmiy qarashlar maqolning ham, matalning ham lingvomadaniy va lingvoma'naviy xususiyatlarini o'z ichiga qamray olishi xalq og'zaki ijodi namunalari orqali isbotlangan. Maqol, matal kabi noyob ma'naviy, madaniy merosdan yosh avlodni tarbiya qilish targ'ibotida unumli va ta'sirli foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan. Inson bolasining shaxs sifatida kamolotga yetishida uni dunyoga keltiruvchi ota va onalarning ruhan va jismonan tetik bo'lishi, ayniqsa, ma'naviyati boy bo'lishi muhimdir. Ma'naviyati boy bo'lgan xalqning madaniyati o'sib boraveradi. Xalqning madaniyati og'izdan og'izga o'tib kelajak avlod uchun haqiqiy darslik, haqiqiy maktab vazifasini bajaradi. Bu darajaga yetishish uchun inson juda ko'p murakkab bosqichdan o'tishi, zarur bilimlarga, hayotiy tajribalarga ega bo'lishi, o'zi yashayotgan va mehnat qilayotgan jamoa muhit va muayyan jamiyatning talab va ehtiyojlarini o'zida aks ettirgandagina shaxs sifatida shakllanib boradi, bu esa maqol va matallarning ma'naviyat uchun xalq madaniyatining boyib borishi uchun turtki bo'ladi. Maqollar va matallar har ikkalasi ham xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir. Maqollarni ishlata olish qobiliyati ham kishining ma'naviyatini ko'rsatadi. Epigraflar sifatida maqollarni ishlatish ham yozuvchining mahoratidan dalolat.



Bundan tashqari adabiy tilde gapira olish omillardir.
ham shaxs ma'naviyatini ko'rsatuvchi

References:

1. Mahmud Koshg'ariy „Devonu lug'atit turk“. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Tom I II III. – Toshkent,1960-1963. T.1. – 1960. 499 b. T.2. – 1961. 427 b. T.3. – 1963. 466 b.
2. Bakirov B.U. Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk asaridagi maqollar xususida // DLT va TXMHJSTO' Samarqand, 2002.
3. "Hikmatnoma"(O'zbek maqollarining izohli lug'ati).www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. <http://www.tdpu.uz> Nizomiy nomidagi TDPU sayti